

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 577 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurt qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi.....	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики.....	237
Худайбергенова Адалат Неъматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
O'zbekiston respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish va bunda xorij tajribasi.....	348
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati.....	354
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va asoslash	358
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
O'zbekistonning xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yo'nalishlari.....	362
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Turg'unova Zohida Shavkat qizi, Umida Yuldasheva	
Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.....	367
Bobomurotova Manzura Panji qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	372
Berdaliyev Javohir Jahongir o'g'li	
Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holati tahlili	379
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Проблемы охраны окружающей среды и формирования «зеленой экономики»	389
Ёдгорова Мухайё Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
The evolution of passenger transport in uzbekistan and its impact on economic growth.....	392
Naubetova Ziyada Niyet kizi	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlarining hisobi.....	397
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Jahon sug'urta amaliyotining O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'siri	402
Kuvatova Dinara Anvarovna	
Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ta'sir mexanizmlari	406
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditida moliyaviy tahlil usullarini qo'llash xususiyatlari.....	411
Saginbaev Sultanbek Turdibay o'g'li, Sultamuratov Qallibek	
The function and value of commercial banks in fostering capital market growth	416
Isakov Janabay Yakipbaevich	
Raqamli texnologiyalarning korxonalar risk boshqaruvidagi rolini swot tahlili orqali tadqiq etishning ahamiyati	427
Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li	
Germaniyaning deutsche banki va buyuk britaniyaning barclays banki xizmatlar amaliyoti va uni o'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	432
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
The state and development trends of business process auditing in joint-stock companies in uzbekistan.....	439
Utegenova Sarbinaz Turdimuratovna	
Mamlaktimizda amaldagi budjetlararo munosabatlarning tartibi hisobi, hamda uning ahamiyati	444
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li, Saydullayeva Zeboxon Shukrilla qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	462
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo	
Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati	467
Bahodirova Mohigul	
Conceptual framework for boosting the financial and economic performance of investment projects in industrial enterprises.....	472
Sarriev Kahraman Ramatullaevich	
Bandlik va ayollar tadbirkorligi	477
Ibodullayeva M.S.	



Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ekonometrik prognozlash.....	482
A'zamov Musurmon Axmadovich, Islomov Javohir	
Eksport siyosatini tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'siri.....	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Aholini ish bilan ta'minlashda qishloq aholisini mehnat salohiyatidan foydalanish.....	492
Noiba Qodirova Maxmud qizi	
Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda rasmiy bandlik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish	497
Xalimbetov Farxad Bagibekovich, Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Analysis of touristic potential and capacity of ecotourism sites	501
Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi	
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish.....	509
Salohiddinov Jaloliddin	
Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi	516
G'aniyev Botir Baxtiyorovich	
O'zbekiston va xorijiy davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital yig'ish strategiyalari	520
Dilnozaxon Muxitdinova	
Iqtisodiy inqiroz paytida korxonalarda likvidlilikni boshqarish strategiyalari	527
Abdusalomova Nodira Bakhodirovna, Jabborova Sevinch Xusanovna	
O'zbekistonda islomiy mikromoliyaviy xizmatlar orqali ish bilan bandlikni oshirish istiqbollari.....	532
Mamatkulov Humoyun Bobir-ugli	
Textile enterprises and changing market conditions: integration of demand analysis, trend forecasting and strategic assortment management	536
Ikramova Nodira Burkhon kizi	
Aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish.....	540
Umarkhodjaeva Muyassarhon Ganievna, Omanova Nargiza Rustam qizi	
Moliyaviy faoliyat natijalari hisobi va auditini takomillashtirish.....	548
Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li	
Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektori korxonalariga kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishda markaziy banklarning qayta moliyalash stavkalarining rolini tahlil qilish	553
Jabbarov Eliboy, Abdullayeva Charos Abdullo qizi	
O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalarning roli va iqtisodiy samaradorligi	558
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish orqali chiqindilarni boshqarish muammosini bartaraf etish yo'llari.....	563
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li, Hamrokulov Ulug'bek Abdurahmatovich	
Korxonani samarali boshqarishni ta'minlash strategiyalari	567
D.Mutalova	
Masofaviy ta'lim platformalarining qiyosiy tahlili va funksional xususiyatlari.....	571
Nabieva Nilufar Nabi qizi	



MASOFAVIY TA'LIM PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Nabieva Nilufar Nabi qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: n.nabieva@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lim platformalarining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, ularning afzalliklari hamda qo'llanilish samaradorligi tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan masofaviy ta'lim platformalari hamda dunyoning yetakchi universitetlarida qo'llanilayotgan platformalarining (Moodle, Coursera, EdX, Google Classroom va boshqalar) funksional imkoniyatlari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har bir platformaning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, ular asosida mahalliy tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, foydalanuvchi interfeysi, moslashuvchanlik, tahlil va monitoring vositalari, o'quv jarayonining interaktivligi kabi mezonlar asosida baholash ishlari olib borilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, ta'lim platformalari, qiyosiy tahlil, funksional imkoniyatlar, Moodle, Coursera, EdX, O'zbekiston ta'lim tizimi, raqamli ta'lim, onlayn o'quv platformalari.

Abstract: This article analyzes the role of distance learning platforms in the modern education system, their advantages, and the effectiveness of their implementation. The functional capabilities of distance learning platforms operating in the Republic of Uzbekistan and those used in leading universities worldwide (such as Moodle, Coursera, EdX, Google Classroom, and others) were comparatively examined. Based on the research results, the specific advantages and disadvantages of each platform were identified, and recommendations for improving the local system were provided. Additionally, evaluation was conducted based on criteria such as user interface, adaptability, analysis and monitoring tools, and the interactivity of the learning process.

Key words: Distance education, learning platforms, comparative analysis, functional capabilities, Moodle, Coursera, EdX, Uzbekistan's education system, digital education, online learning platforms.

Аннотация: В данной статье анализируется роль платформ дистанционного обучения в современной системе образования, их преимущества и эффективность использования. Сравнительно изучаются функциональные возможности платформ дистанционного обучения, действующих в Республике Узбекистан, и платформ, используемых в ведущих университетах мира (Moodle, Coursera, EdX, Google Classroom и др.). По результатам исследования выявлены конкретные преимущества и недостатки каждой платформы, и на их основе даны рекомендации по совершенствованию локальной системы. Также проведена оценка по таким критериям, как пользовательский интерфейс, гибкость, инструменты анализа и мониторинга, интерактивность процесса обучения.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, образовательные платформы, сравнительный анализ, функциональные возможности, Moodle, Coursera, EdX, система образования Узбекистана, цифровое образование, платформы онлайн-обучения.

KIRISH

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, masofaviy ta'lim tizimi pandemiya davrida nafaqat vaqtinchalik choratadbir, balki uzluksiz ta'limning barqaror shakli sifatida shakllanib bordi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi davrida 190 dan ortiq mamlakatda 1,6 milliarddan ziyod o'quvchi masofaviy ta'limga o'tgan [1]. Bu esa global miqyosda ta'limning raqamli transformatsiyasini jadallashtirdi.

Masofaviy ta'lim platformalari yordamida o'quv jarayoni interaktiv va moslashuvchan shaklda tashkil etilishi, ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, o'zlashtirish jarayonini tahlil qilish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bugungi kunda xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan platformalar qatoriga Moodle, Google Classroom, EdX, Coursera, Canvas, Microsoft Teams kiradi. Ularning har biri texnik infratuzilma, foydalanuvchi



interfeysi, monitoring imkoniyatlari va o'quv materiallarining yetkazilishi jihatidan farq qiladi [2]. Masalan, Moodle ochiq kodli, moslashuvchan tizim sifatida ta'lim muassasalari uchun qulay bo'lsa, EdX va Coursera platformalari yirik universitetlar bilan hamkorlikda global darajadagi kurslarni taklif etadi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda masofaviy ta'lim tizimlarini joriy etishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ko'plab oliy ta'lim muassasalari Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar asosida dars mashg'ulotlarini olib bormoqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi 70 dan ortiq oliy ta'lim muassasasida masofaviy va aralash ta'lim shakllari yo'lga qo'yilgan [3].

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida ishlaydigan o'qituvchilar, tizim administratorlari, metodistlar, ta'limni tashkil etish va boshqarish bo'limlari uchun amaliy ahamiyat kasb etishi kutilmoqda. Shuningdek, ushbu tadqiqot ta'lim tizimiga ilg'or AKT vositalarini joriy etish, o'qitish jarayonini tashkil etish, bilim sifatini oshirish, talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish, vaqt va resurslarini samarali taqsimlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida ta'lim tizimida ham raqqamli transformatsiya jarayoni jadal kechmoqda. Bu jarayonda milliy ta'lim tizimini jahon andozalari darajasiga oshirish, hududlar o'rtasidagi bilim saviyasidagi tafovutni qisqartirish, shuningdek, ta'lim tizimiga zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish asosiy vazifalardan biridir.

Bunday sharoitda, turli platformalarni tizimli qiyosiy tahlil asosida o'rganish, ularni ta'lim tizimiga joriy etish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bu esa, o'qituvchilar, talabalar va ta'lim tashkilotlarini zamonaviy raqqamli muhitda samarali ishlashiga imkoniyat yaratib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Masofaviy ta'lim bugungi kunda global ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, xorijiy adabiyotlarda masofaviy ta'lim samaradorligini aniqlovchi mezonlar, platformalarning texnik imkoniyatlari, foydalanuvchi tajribasi va pedagogik yondashuvlar ustuvor mavzulardan biri sifatida o'rganilmoqda. Masalan, Al-Fraihat va hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2020) e-learning tizimlarining muvaffaqiyat omillari tizimli ravishda baholab chiqilgan. Mualliflar texnologik qulaylik, foydalanuvchi ishonchi, kontent sifati, o'quvchilarni rag'batlantirish tizimi va texnik yordamni asosiy omillar sifatida ko'rsatganlar [4]. Hrastinski (2008) esa o'z tadqiqotida sinxron va asinxron ta'lim shakllarining o'ziga xos afzallik va cheklovlarini tahlil qilgan va ularni aralash shaklda qo'llash samaraliroq ekanligini aytgan [5].

Boshqa bir muhim manba — Anderson (2004) tomonidan taklif etilgan "Interaction Equivalency Theorem" nazariyasiga ko'ra, masofaviy ta'limda talaba-o'qituvchi, talaba-talaba va talaba-kontent o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar samarali ta'lim jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi [6]. Shu bilan birga, Siemens va Downes (2005) tomonidan ishlab chiqilgan konnektivizm nazariyasiga asoslangan yondashuvda raqqamli ta'limda bilim ijtimoiy va texnologik tarmoqlar orqali shakllanishi tushuntirib berilgan. Moodle, EdX, Coursera va Blackboard kabi platformalar ustida olib borilgan tadqiqotlar (Gütl et al., 2014; Margaryan et al., 2015) shuni ko'rsatadiki, platformalar orasida sezilarli funksional farqlar mavjud. Misol uchun, EdX kuchli sertifikatlash va baholash tizimiga ega bo'lsa, Moodle keng moslashtirish imkoniyati bilan ajralib turadi [7].

O'zbekiston olimlari ham masofaviy ta'lim masalalarini faol o'rganib kelmoqda. Jumladan, R.A. Jo'rayev va A.A. Raxmatov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida Moodle platformasini joriy etish tajribalari tahlil qilingan. Ular texnik imkoniyatlar, o'qituvchilarning IT savodxonligi, talabalarining onlayn darslardagi ishtiroki va rag'batlantirish mexanizmlarini asosiy muammo va imkoniyatlar sifatida ko'rsatishgan [8].

Shuningdek, X. N. Abduvaliyev (2022) o'z maqolasida masofaviy ta'limning psixologik-pedagogik jihatlariga e'tibor qaratgan bo'lib, onlayn darslarda interaktivlikni oshirish uchun multimedia vositalaridan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Ba'zi mahalliy tadqiqotlarda e-learning tizimlarining standartlashtirilmaganligi, o'zbek tilidagi kontent kamligi, internet tezligi va texnik infratuzilma yetishmovchiligi dolzarb muammolar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim universitetlarda ijobiy tajribalar — masalan, Moodle orqali testlar, topshiriqlar va forumlar orqali baholash jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilgani — muhim ilg'or amaliyot sifatida ko'rsatilmoqda [10].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim platformalarining samaradorligi ularning texnik imkoniyatlari, foydalanuvchi interfeysi, kontent sifati, baholash tizimi va psixopedagogik moslashuv darajasiga bevosita bog'liq. Har bir platformaning o'ziga xos afzallik va cheklovlarini aniqlash hamda milliy ta'lim tizimi uchun eng maqbul variantlarni joriy etish zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir.



Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda masofaviy ta'lim platformalarining funksional imkoniyatlari va ularning samaradorligi bo'yicha qiyosiy tahlil olib borildi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlar integratsiyasi asosida aralash uslubdan (mixed methods approach) foydalanildi. Maqsad — xalqaro va mahalliy masofaviy ta'lim platformalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularning texnik va pedagogik imkoniyatlarini baholash hamda O'zbekiston ta'lim tizimiga mos keluvchi platforma xususiyatlarini tavsiflashdir.

Tahlil natijalari. Tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim platformalarining funksional imkoniyatlari va foydalanuvchi tajribasi nuqtayi nazaridan sezilarli farqlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlil ikki yo'nalishda olib borildi: (1) texnik va funksional ko'rsatkichlar bo'yicha platformalararo taqqoslash; (2) foydalanuvchilarning (talaba va o'qituvchilarning) subyektiv fikrlariga asoslangan so'rovnoma va intervyu natijalari.

Quyidagi platformalar asosiy mezonlar bo'yicha tahlil qilindi: Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Coursera, EdX va Ziyonet LMS. Ularning asosiy funksiyalari 6 ta mezon asosida baholandi:

1-jadval. Masofaviy ta'lim platformalarining funksional xususiyatlari bo'yicha qiyosiy bahosi

Platforma	Foydalanuvchi interfeysi	Baholash tizimi	Interaktivlik	Kontent yuklash imkoniyati	Til moslashuvi	Texnik qulaylik	Foydalanuvchi interfeysi
Moodle	4.2	4.5	4.1	4.8	4.3	4.0	4.2
Google Classroom	4.7	3.8	4.0	4.3	4.2	4.6	4.7
Microsoft Teams	4.0	4.2	4.5	4.1	3.9	4.7	4.0
EdX	4.5	4.9	4.6	4.7	4.6	4.4	4.5
Coursera	4.6	4.8	4.3	4.5	4.5	4.3	4.6
Ziyonet LMS	3.2	3.5	3.1	3.6	3.8	3.3	3.2

Manba: Muallifning shaxsiy tadqiqoti asosida, 2025.

Ballar 5 ballik tizimda mutaxassislar va foydalanuvchilar fikriga asoslangan holda belgilandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro platformalar (Coursera, EdX, Moodle) kengroq imkoniyatlarga ega bo'lib, baholash va interaktivlikda yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ziyonet LMS esa milliy talablarni qisman qondirayotgan bo'lsa-da, interfeys qulayligi va texnik optimallik bo'yicha cheklolarga ega.

Turli ta'lim platformalari o'rtasidagi funksional imkoniyatlar, interfeys qulayligi, tizimning interaktivlik darajasi, kontent yuklash imkoniyatlari, til moslashuvi hamda texnik qulaylik bo'yicha sezilarli farqlar aniqlanadi.

Bunda EdX va Coursera platformalari aksariyat mezonlar bo'yicha eng yuqori ballarga ega bo'lib, bu ularning tizimlarini tashkil etishda zamonaviy didaktik talablar, o'qitish metodologiyasi va multimedia imkoniyatlarini chuqur hisobga olganidan dalolat beradi. Xususan, EdX ning baholash tizimi (4.9) va interaktivligi (4.6), Coursera ning esa foydalanuvchi interfeysi (4.6) va kontent yuklash imkoniyati (4.5) bo'yicha ballari tizimning o'quvchilar uchun qulay, ishlash prinsipi sodda va samarali ekanini aks ettiradi. Bu, shubhasiz, ushbu platformalarda ta'lim mazmunini etkazib berish jarayoni tizimli, shaffof va samarali ekanidan dalolat bergan.

Moodle, Google Classroom va Microsoft Teams esa o'rtacha yoki yaxshi natijalarni qayd etgan. Moodle, aksariyat mezonlarda, 4 atrofida yoki undan oshiq ball olgan, bu uning ochiq manbali tizim sifatidagi moslasha oluvchanligini, turli ta'lim tizimiga integratsiya qila olishini aks ettiradi. Google Classroom, asosan, interfeysi (4.7) va texnik qulayligi (4.6) bo'yicha yaxshi, lekin baholash tizimi (3.8) va interaktivligi (4.0) bo'yicha nisbatan past natija bergan. Microsoft Teams esa, aksincha, interaktivlik (4.5) va baholash tizimi (4.2) bo'yicha yaxshi, lekin kontent yuklash imkoniyati (4.1) va til moslashuvi (3.9) bo'yicha nisbatan zaif.

Ziyonet LMS tizimi aksariyat mezonlarda past ball olgan (interaktivlik – 3.1, baholash tizimi – 3.5, interfeysi – 3.2), bu uning tizim imkoniyatlarini takomillashtirish, multimedia resurslarini oshirish, foydalanish qulayligini yaxshilash hamda milliy ta'lim tizimiga to'liq integratsiya qilish zarurligini bildiradi. Ziyonet ning nisbiy orqada qolishi uning milliy tizim sifatidagi cheklolari, resurslarining kamligi va metodologik ishlanmalarni zamonaviy talablar darajasiga etkaza olmaganligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonida tizimning interfeysi, interaktivligi, kontentni oshirish imkoniyati, til moslashuvi, baholash tizimi va texnik qulayligi ta'lim sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. EdX va Coursera kabi tizimlar ushbu jihatlar bo'yicha ilg'or ekanligi aniqlansa, Ziyonet tizimi aksincha, zamonaviy talablar darajasidan orqada qolmoqda. Shunga asosanib, milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilingan Ziyonet platformasini takomillashtirish, uning interfeysi, kontent, interaktivlik va baholash tizimini qayta ishlash zarurligi ortaya chiqmoqda.



2. So'rovnoma natijalari

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida 6 ta OTMdan 120 nafar talaba va 30 nafar o'qituvchining fikri o'rganildi. Savollar Likert shkalasiga (1 dan 5 gacha) asoslangan bo'lib, natijalar quyidagicha:

Talabalar fikri:

74% talaba Google Classroom'ni qulay interfeysga ega deb baholagan.

65% talaba Moodle'dagi baholash tizimidan qoniqqan.

60% talaba Ziyonet LMS'da dars materiallarini topishda qiyinchiliklar mavjudligini bildirgan.

68% talaba videodarslar va test tizimi yaxshi integratsiyalashgan platformalarni afzal ko'rgan.

O'qituvchilar fikri:

80% o'qituvchi Moodle'dan foydalanganda dars materiallarini yuklash qulayligini bildirgan.

55% o'qituvchi Google Classroom'da talabalarni baholashda ba'zi cheklovlar borligini aytgan.

70% o'qituvchi Ziyonet LMS'ni modernizatsiya qilish zarur deb hisoblaydi.

3. Intervyu asosidagi sifatli tahlil

Yarimstrukturaviy intervylar davomida quyidagi mavzular aniqlab olindi:

Texnik muammolar: Ziyonet va Moodle platformalarida ba'zi hududlarda internet tezligi pastligi darslar samaradorligini kamaytirayotganini bildirganlar.

Interaktivlik: Coursera va Microsoft Teams'da o'zaro muloqot, chat, hamkorlikdagi hujjatlar ustida ishlash imkoniyatlari ijobiy baholangan.

Baholash va nazorat: Moodle va EdX platformalarida avtomatik test, topshiriqlar va plagiat tekshiruv mavjudligi o'qituvchilarning ishini yengillashtirgani qayd etilgan.

Tahlilni masofaviy ta'lim platformalarini asosiy funksiyalari kesimida qiyosiy tahlil qilish orqali davom ettiramiz. Qiyosiy tahlil Moodle, EdX, Coursera va Ziyonet tizimlarini qamrab olib, ularning interfeysi, kontentni tashkil etish imkoniyatlari, talabalarni faollashtirish tizimi, sertifikat berish imkoniyatlari, multimediyadan foydalanish darajasi, mobil ilovasi mavjudligi hamda tahliliy hisobot tizimiga ega ekanligi asosida o'tkazildi (2-jadval).

2-jadval. Masofaviy ta'lim platformalarining asosiy funksiyalari bo'yicha qiyosiy tahlili

	Moodle	EdX	Coursera	Ziyonet
Kontentni tashkil etish imkoniyatlari	Yuqori	Yuqori	Yuqori	O'rta
Sertifikat tizimi	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Yo'q
Multimediyadan foydalanish	Yuqori	Yuqori	Yuqori	O'rta
Mobil ilovasi	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Yo'q
Tahliliy hisobot tizimi	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Cheklangan
Talabalarni faollashtirish tizimi (quiz, forum, topshiriqlar)	Kuchli	Kuchli	Kuchli	Zaif
Foydalanish interfeysi	Sodda	Modern	Modern	An'anaviy
Mahalliy tilni qo'llab-quvvatlashi	Mavjud	Qisman	Qisman	To'liq (o'zbek)

Manba: Muallif tomonidan platformalarni ishlash tizimini o'rganish asosida ishlab chiqilgan.

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Moodle, EdX va Coursera aksariyat mezonlar bo'yicha yuqori imkoniyatlarga ega, Ziyonet esa oddiy tizim, asosiy funksiyalarni o'zida aks ettirgan, lekin multimediyadan foydalanish, sertifikat tizimi va tahliliy imkoniyatlar borasida cheklovlarga ega.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida multimediyadan, tahliliy tizimidan, sertifikat tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega platformalarda faollik oshib bormoqda. Ziyonet, aksincha, cheklangan funksiyalari bois, talabalarni tizimda faol ishtirok etishga to'liq jalb eta olmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda Moodle, EdX, Coursera va Ziyonet kabi yetakchi masofaviy ta'lim platformalari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida har bir tizimning funksional imkoniyatlari, ishlash tizimi, ta'lim resurslarini tashkil etish, hamkorlik, qayta aloqani ta'minlash, tizimdan foydalanish qulayligi, multimediya resurslarini ishlash imkoniyatlari, hamda O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etishdagi afzallik va kamchiliklari aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Moodle tizimi ochiq manba (open source) ekanligi, kurslarini tashkil etishdagi moslashuvchanligi, turli pluginlar yordamida funktsionalligini oshirish imkoniyati, shuningdek, o'qituvchilar va talabalarni tizim ishlashiga to'liq jalb etish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. EdX va Coursera esa jahon andozalariga asoslangan kurslar, ilg'or universitetlar bilan hamkorlik, sertifikatlar taqdim etish



tizimi, multimediya resurslarining boyligi hamda bilimlarini oshirmoqchi bo'lgan turli toifadagi shaxslarga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Ziyonet esa milliy ta'lim tizimiga integrallashuv, resurslarining o'zbek tilida bo'lishi, hududiy shart-sharoitlar hisobiga ishlash tizimini tashkil etishi bilan mahalliy ta'lim tizimiga to'liq mos ekanligi aniqlandi.

Mazkur tizimlar turli imkoniyatlarni taqdim etishiga qaramasdan, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llashda internet tizimining barqarorligi, o'qituvchilar va talabalarining raqamli savodxonlik darajasi, tizim interfeysining til va madaniy xususiyatlarga mosligi, resurslarni mahalliy talablar asosida sozlash imkoniyatlari, shuningdek, xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, mualliflik huquqi, intellektual mulkni muhofaza qilish kabi omillar muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Bunday sharoitda, ta'lim tizimiga joriy etilayotgan masofaviy platformalarni tanlashda nafaqat ularning funksional imkoniyatlarini, balki milliy ta'lim tizimi, o'qitish tizimining metodologik asoslarini, milliy kadrlar salohiyatini, hududning internet tizimi imkoniyatlarini, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini ham hisobga olish zarur. Qiyosiy tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, universal tizim yo'q; har bir tizim muayyan shart-sharoitda, ta'lim tizimining talabiga qarab, samarali bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslangan holda, O'zbekiston ta'lim tizimida masofaviy ta'lim platformlarini samarali joriy etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Platformalarni hududiy shart-sharoitlarga moslashtirish zarur. Ta'lim tizimiga joriy etilayotgan har bir platforma hududning internet tizimi, o'qituvchilar va talabalarining raqamli savodxonlik darajasi, milliy til, madaniyat va metodologik talablarga moslashtirilishi zarur. Masalan, Ziyonet tizimini hududiy maktablar uchun asosiy platforma sifatida ishlatish, Moodle'ni universitetlar va kollejlarda uchun, EdX yoki Coursera'ni ilg'or kurslar yoki malaka oshirish tizimida qo'llash samarali bo'lishi aniqlandi.

Pedagog kadrlarini tizimli tayyorlash lozim.. Masofaviy ta'lim tizimidan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarni zamonaviy platformalarni ishlatish, multimediya resurslarini yaratish, kurslarini tashkil etish, talabalarni baholash metodlarini joriy etish bo'yicha tizimli tayyorlov kurslarini tashkil etish zarur. Bu, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishi, tizim imkoniyatlaridan to'liq foydalanishiga imkoniyat yaratadi.

Ikki yoki undan ortiq tizimni integratsiya qilish zarur. Ta'lim tizimining turli bosqichlarida turli platformalarni uyg'un ishlatish, ularni o'zaro bog'lash imkoniyatlarini yaratish zarur. Masalan, Ziyonet tizimini asos sifatida ishlatib, Moodle yoki EdX tizimidan qo'shimcha kurslar yoki resurslar taqdim etish tizimini yo'lga qo'yish samarali bo'lishi mumkin.

Texnik imkoniyatlarini oshirish lozim. Masofaviy ta'lim tizimini samarali ishlashi uchun hududlarda internet tezligi, server imkoniyatlari, ishlaydigan qurilmalarning soni va sifatini oshirish, tizimni barqaror ishlashini ta'minlovchi infratuzilmani tashkil etish zarur.

Mazmun, resurslar va metodologiyani milliy lashtirish kerak. Platformalarda ishlatiladigan o'quv materiallarini milliy o'quv rejasi, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlariga moslashtirish, mahalliy tillarga tarjima qilish, milliy tarix, madaniyat va urf-odatlarini aks ettirgan resurslar ishlab chiqish zarur. Bu ta'lim tizimining milliy xususiyatlarini aks ettirishi, o'quvchilar uchun yaqin, tushunarli va samarali bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Baholash tizimini takomillashtirish lozim. Masofaviy tizimda bilimlarini sinov, test, amaliy topshiriqlar, portfolio yoki loyiha ishlari asosida aniqlash tizimini joriy etish, natijalarni shaffof, adolatli va ishonchli aniqlash imkonini oshiradi.

Mazkur takliflar ta'lim tizimiga ilg'or, zamonaviy, milliy shart-sharoitga mos, samarali va barqaror masofaviy ta'lim tizimini joriy etishga imkoniyat yaratadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. The World Bank. How COVID-19 is affecting education around the world [elektron resurs]. – Kirish sanasi: 16.06.2025. – URL: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2020/04/04/how-covid-19-is-affecting-education-around-the-world>.
2. Bozkurt A., et al. A global outlook to the COVID-19 pandemic's impact on education: a massive review of the literature // Asian Journal of Distance Education. 2020. Vol.15, no.1. P.1–31 [elektron resurs]. – Kirish sanasi: 16.06.2025. – URL: <https://www.asianjde.com/15-1-1>.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. 2023 yilda O'zbekistonda 70 dan ortiq oliy ta'lim muassasasida masofaviy va aralash ta'lim joriy etildi [elektron resurs]. – Kirish sanasi: 16.06.2025. – URL: <https://edu.uz/uz/news/view/1455>.
4. Al-Fraihat, D., et al. Success factors for e-learning systems: a comparative study // International Journal of Information and Communication Technology Research. 2020. Vol. 10, no. 1. P. 24–39.
5. Hrastinski, S. Asynchronous and synchronous e-learning // EDUCAUSE Quarterly. 2008. Vol. 31, no. 4. P. 51–55.
6. Anderson, T. Towards a theory of online learning // Theory and practice of online learning / T. Anderson (ed.). Athabasca University, 2004. P. 33–60.



7. Gütl, C., et al. The role of online education platforms in education // International Conference on Interactive Collaborative Learning (ICL), 2014. IEEE. P. 97–104; Margaryan, M., et al. Educational platforms' functionality comparison. Distance and E-Learning Journal. 2015. Vol. 11, no. 2. P. 15–27.
8. Jo'rayev, R.A., Rahmatov, A.A. Moodle tizimini oliy ta'limda joriy etish tajribalari // Pedagogika va ta'lim. 2021. № 1. B. 54–60.
9. Abduvaliyev, X.N. Masofaviy ta'limda multimedia vositalardan samarali foydalanish // Ta'lim, tarbiya va metodika. 2022. № 2. B. 44–49.
10. Karimov, A., Saidova, D. Masofaviy ta'lim tizimini joriy etishning muammo va imkoniyatlari // Ilm-fan va ta'lim. 2022. № 3. B. 79–86.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
